
IPAK QURTI TARQATILMOQDA

Ma'lumki, har yili aprel, may, iyun oylarida yurtimizda ipak(pilla) urug'ini olib kelish, pilla qurti boqish hamda tayyor mahsulotlarni pillachilik korxonalariga yetkazib berish borasida keng ko'lamli ishlar olib boriladi.

Joriy yil pilla mavsumida Rishton tumanida 2 ming 172 quti ipak qurti parvarishlab, 126 tonna pilla xomashyosi yetishtirish rejalashtirilgan.

Ayni vaqtda fermer xo'jaliklari va kasanachilar bilan ipak qurti parvarishlash uchun kontraktasiya shartnomalari tuzildi. Bunda "Temir daftar"da ro'yxatga olingan oilalar hamda "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan fuqarolarga alohida e'tibor qaratildi.

Bugungi kunda fermer xo'jaliklari hamda qurt boquvchi zvenolarga urug' tarqatish borasidagi ishlar boshlab yuborilgan.

2023-04-08 08:27:35